

INKLYUZIV – JAMIYAT SARI

Meyliyeva Zebiniso Mirkomilovna
Milliy Universitet talabasi, Qashqadaryo

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalar hayotini sog'lomlashtirish, jamiyatda o'z o'rini topishida ko'maklashish yo'llari va bunda ta'limning o'rni xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, baholash usullari, sog'lomlashtirish, jamiyat.

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg'ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo'shishlariga umid bog'lanadi. Prezident qarori bilan 2025 yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Biroq bu ta'lim tizimini bolaning maktabgacha davridan boshlash maqsadga muvofiq.

Inklyuziv ta'lim – ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi. Mazkur ta'lim nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi **to'siqlarni (diskriminatsiyani)** bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) bolalar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Ta'lim-tarbiya nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilalarda ham maqsadli tashkil etilishi bolalarni ma'naviy jihatdan yetuk, jismoniy jihatdan mustahkam, aqliy jihatdan raqobatbardosh mutaxassis etib tarbiyalashning muhim shartlaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli, 2019 yil 29 aprelda O'zbekiston Respublikasi halq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli farmonlari, 2020 yil 13 oktabrdagi Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimini joriy etish belgilab qo'yilgan. Jumladan, Xalq ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi 1-bob 2-bandning 3-xatboshida: o'qitish metodikalarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; 3-bob 8- bo'lim (d) bandida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash, ushbu bandning 8-xatboshida imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlar amalga oshirish vazifalari belgilandi. Inklyuziv ta'limning bosh g'oyasini quyidagi strategiya tashkil etadi: Zamonaviy maktabda bola ta'limga emas, ta'lim bola imkoniyatlariga moslashtiriladi . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2021 yildagi Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 510-son qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi qonuni 2019 yil 16-dekabrda 595-sonli Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni" ning 17 moddasida Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi. Xususan, Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom (13.05.2019 yildagi 391-son VMQ bilan tasdiqlangan) quyidagilar bilan to'ldirildi:

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishlash texnologiyalari, usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlari, o'ziga xos imkoniyatlari va sog'lig'i holatidan kelib chiqqan holda, pedagog va tibbiy xodimlar tomonidan belgilanadi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogik kengashi bilan kelishiladi;

- har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har yilgi soni, davom etadigan davri va izchilligi MTTning o'quv rejasida belgilanadi;

- MTTdagi inklyuziv guruhlarga qabul qilish uchun rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar qo'shimcha ravishda tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi taqdim etiladi;

- joriy o'quv yili davomida 7 yoshga to'lgan tarbiyalanuvchilar mazkur o'quv yilining so'ngigiga qadar MTTda qoladi.

Shu bilan bir qatorda, 12-bob Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun ota-onalar to'lovi"ga

o'zgartirishlar kiritildi. Endi to'lov ota-onalar va MTT o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda albatta ijtimoiy sheriklik jarayonlariga tayanish lozim. Bu borada ijtimoiy sheriklik asosan, davlat hokimiyati organlari va nogironlar jamoat tashkilotlari o'rtasida bo'lishi kerak. Chunki aynan, nogironlar jamoat tashkilotlari nogironligi bor shaxslarga nima muhimligi va kerakligi haqida davlat organlariga maslahat bera oladi. Nogironligi bor bolalarni talablari va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'limda to'siqsiz muhitni yaratishga yordam berishadi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xosligi shundaki, pedagog guruhdagi bolalar rivojlanishining xilma-xilligini, ularning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga oladi. Shu munosabat bilan bolalarning o'quv jarayonida teng imkoniyatlariga ega bo'lgan holda ishtirok etishlari uchun pedagogning ish shakllari va usullarini moslashtirish zaruriyati to'g'iladi. Boshqacha qilib aytganda, moslashuv bolalarga qandaydir afzallik emas, balki ishtirok etish imkoniyati beradi. Inklyuziv ishtirok etish, qatnashishni bildiradi. O'ziga xos ehtiyojli bola agar u qo'yidagi ko'rsatilganlardan biriga mansub bo'lsa.

- DMTT ga qolgan barcha bolalar qanday tarzda keladigan va ketadigan bo'lsa, shunday keladi va ketadi;

- DMTT ga kirishdan va kiyim uchun xuddi shunday javondan foydalanadi;

- Barcha bilan birga shunday mashg'ulotlarda ishtirok etadi (masalan, ertalabki uchrashuv);

- Xuddi shunday materiallardan foydalanadi


- Boshqalar o'ynaydigan joylarda o'ynaydi (sayr paytida va h.k)

- Ovqatni ham xuddi shunday stol ustida yeydi;

- Xuddi shunday hojatxona va kiyimxonadan foydalanadi

- Unga ham mashg'ulotlarning xuddi shunday turlarini tanlab olish imkoni beriladi

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga guruh ishida ishtirok etish va o'z salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini berish uchun o'qitishda qo'shimcha, ba'zan esa maxsus qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi.



Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy cheklovda bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar salbiy emotsional muhitda kun kechiradilar va salbiy xulq-atvorga ega bo'ladilar bola yashab turgan butun hamjamiyatda kompleks tayyorlov ishini olib borish talab qilinadi, chunki har qanday bolaning ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolaning ijtimoiy xulq atvori u yashayotgan ijtimoiy muhitga bog'liq.

Yuqorida keltirilgan muommolarni hal qilish uchun qo'yidagi masalalar o'z yechimini topishi zarur:

- Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasining uyg'unlashuvi uchun ularni ilk yoshdan aniqlash, tashxis qo'yish, ta'lim olishi uchun tegishli tashkilotlariga yo'llash, uzluksiz maxsus ta'limning muqobil turlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, uy sharoitida tarbiyalanayotgan bolalar ta'lim mazmuni ularning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilash, individual dasturlarni ishlab chiqish, ota-onlar va pedagoglar uchun inklyuziv ta'lim yo'nalishida o'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish ta'limga zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalarni jalb qilish, internet tarmoqlariorqali masofa o'qitishning tashkil etish jamiyatimiz va mutaxassislar oldida turgan vazifadir.

-Alohida ehtiyojli bolalar qamrov darajasi pastligi sababli alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalaydigan nodavlat, notijorat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.

- Hudud darajasidan kelib chiqib rehabilitatsiya (sog'lomlashtirish) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.

Inklyuziv ta'limni O'zbekiston Respublikasida joriy qilishning yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan hududlarda ham imkoni cheklangan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimiga jalb qilinishiga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni 2019 yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni".
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi qarori".
3. O.Yu Potanova Inklyuzivniy praktika v detskom sadu -Moskva 2019.
4. N.N Malofee, N.Shmatko "Bazoviy modeli inklyuzivnogo obucheniya" Moskva 2013
5. Sh.Sh.Mirziyoeva, I.V Goroshova, U.TMikailova "Maktabgacha ta'limda individuallashtirish alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi. T.: 2020,
6. R.Sh Shomahmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" T; Chashma print 2011.